



ASSESSMENT OF THE INVENTORY TURNOVER PROCEDURE IN MANUFACTURING AND SERVICE ENTERPRISES

Ahmatova Mukhlisa Ahmat kizi

Samarkand Institute of Economics and Service

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461507>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Inventory, intake
procedure, cost price,
manufacturing, service
enterprise, accounting,
valuation methods.

ABSTRACT

This article analyzes the inventory intake procedures in manufacturing and service enterprises. It focuses on inventory recognition, cost determination, and documentation based on IAS 2 "Inventories". The study highlights gaps in current practices and provides recommendations for better implementation.

ОЦЕНКА ПОРЯДКА ОБОРОТА ЗАПАСОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ И СЕРВИСНОЙ СФЕРЫ

Ахматова Мухлиса Ахмат кызы

Самаркандский институт экономики и сервиса

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461507>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Товарно-материальные
запасы, порядок
поступления,
себестоимость,
производство, сфера
услуг, бухгалтерский
учет, методы оценки.

ABSTRACT

В статье рассматриваются вопросы оценки порядка поступления товарно-материальных запасов (ТМЗ) в производственных и сервисных предприятиях. Основное внимание уделено учету и оценке ТМЗ в соответствии с МСФО 2 «Запасы». Проведен анализ текущей практики и даны предложения по ее совершенствованию.

ISHLAB CHIQRISH VA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA TOVAR- MODDIY ZAXIRALARI KIRIMI TARTIBINI BAHOLASH

Ahmatova Muxlisa Ahmat qizi

Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461507>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Maqolada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarning (TMZ) kirimi tartibini baholash jarayonlari yoritilgan. Asosiy e'tibor BHXS 2 – "Tovar-moddiy



Tovar-moddiy zaxira, kirim tartibi, tan narx, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, buxgalteriya hisobi, baholash usullari.

zahiralar" standartiga muvofiq zaxiralarni hisobga olish, ularning tan narxini aniqlash va kirim jarayonini hujjatlashtirishga qaratilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, amaldagi yondashuvlar takomillashtirishga muhtoj.

Kirish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslarning to'g'ri hisobga olinishi samarali boshqaruvning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralarning kirimini aniqlash, ularning bahosi va hujjat asosida hisobga olinishi iqtisodiy samaradorlikni belgilab beradi. Bu borada xalqaro tajribada ishlab chiqilgan BHXS standarti muhim o'rin tutadi.

Ushbu maqolada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida tovar-moddiy zaxiralari kirimini aniqlash, hujjatlarni rasmiylashtirish, tan narxni hisoblash va baholashning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganiladi. Shu bilan birga, mavjud amaliyotlar baholab chiqilib, takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar sharhi.

BHXS 2 – "Tovar-moddiy zahiralar": Standart tovar-moddiy zaxiralarning tan narxini aniqlash, FIFO va o'rtacha tahlil usullarini qo'llash, sof sotish qiymatining aniqlanishiga oid mezonlarni belgilaydi.

Milliy buxgalteriya hisobi standartlari: O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya yuritish tartiblarini belgilab, tovar-moddiy zaxiralar kirimi bo'yicha asosiy qoidalarni ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotlar sharhi (ISA va IAS): Inventarlarning kirimdagi tahlil usullari, hisob siyosati va ichki nazorat tizimlarini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlar, BHXS 2 va milliy standartlar asosida nazariy tahlil qilindi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlari misolida tovar-moddiy zaxiralar kirim jarayoni kuzatildi, amaldagi hujjatlar tahlil qilinib, metodik kamchiliklar aniqlandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kirim jarayonining hujjatlashtirilishi: Ko'plab korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar kirimiga doir hujjatlar (qabul qilish dalolatnomasi, kirim orderi) to'liq rasmiylashtirilmaydi yoki elektron tizimga kechiktirib kiritiladi. Bu esa real vaqt rejimidagi nazoratga xalaqit beradi.

Tan narxini noto'g'ri hisoblash. BHXS 2 ga ko'ra, tan narx – bu mahsulotni sotib olish, tashish, saqlash va qayta ishlash xarajatlarining yig'indisidir. Amalda, korxonalarda ko'pincha faqat xarid qiymati hisobga olinadi, qolgan xarajatlar esa nazardan chetda qoladi.

FIFO va o'rtacha usulning noto'g'ri qo'llanilishining ahamiyati. Zaxiralarni hisoblashda FIFO yoki o'rtacha tortilgan qiymat qo'llanilishi kerak. Ayrim xizmat ko'rsatish korxonalarida bu usullar noto'g'ri yondashuv asosida qo'llanilib, moliyaviy hisobotlarning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Ishlab chiqarishdagi tovar-moddiy zaxiralarning noto'g'ri baholanishi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan tovar-moddiy zaxiralar qayta ishlash jarayonida sarflanadi.



Ularning e'tibordan chetda qolishi natijasida mahsulotning umumiy tannarxi noto'g'ri shakllanadi.

Hizmat ko'rsatish korxonalaridagi tovar-moddiy zaxiralarni baholash. BHXS 2 ga muvofiq, xizmat ko'rsatish korxonalari xizmatni tayyorlash uchun sarflangan ishchi kuchi va materiallar qiymatini tovar-moddiy zaxiralar sifatida hisobga olishi lozim. Amalda bu ko'rsatkichlar ko'pincha hujjatlashtirilmaydi.

Ichki nazorat tizimining sustligi. Kirim nazorati bo'yicha belgilangan tartiblarning aksariyati faqat formal ravishda mavjud bo'lib, amalda nazorat samarali olib borilmaydi. Bu esa tovar-moddiy zaxiralarning noto'g'ri aks ettirilishiga olib keladi.

Hisob siyosatining noaniqligi. Ko'plab korxonalar hisob siyosatida tovar-moddiy zaxiralar kirimi bo'yicha aniq usullarni belgilamagan. Bu esa turli sharoitlarda turlicha yondashuvga sabab bo'lmoqda.

Baholashdagi xatolar hisobotga ta'siri. Tovar-moddiy zaxiralar kirimi noto'g'ri baholangan taqdirda, bu mahsulotning umumiy tannarxiga, natijada foyda va zarar ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Auditorlik tekshiruvlari ushbu xatoliklarni aniqlaydi va tahlil qiladi.

Inventarizatsiya jarayonining sustligi. Korxonalarda real zahira miqdori bilan hujjatdagi miqdor o'rtasidagi farq inventarizatsiya jarayonining vaqtida va to'liq o'tkazilmasligi bilan bog'liq. Bu esa moliyaviy hisobotlarda noto'g'ri raqamlarning aks etishiga olib keladi. BHXS 2 da esa aniq ko'rsatilgan: tovar-moddiy zaxiralar har bir hisobot davrida qayta ko'rib chiqilishi va real qiymatga muvofiqlashtirilishi kerak.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida zaxiralarni hisobga olishdagi farqlari. Xizmat ko'rsatish korxonalarida tayyor mahsulot bo'lmaganligi sababli, ular uchun tovar-moddiy zaxiralar tushunchasi xizmatlarni ko'rsatishda sarflanadigan materiallar va ishchi kuchi bilan bog'liq. BHXS 2, 19-bandga ko'ra, bunday xizmatlar uchun sarflangan harajatlar tovar-moddiy zaxiralar sifatida e'tirof etilishi lozim. Bu yondashuv ko'plab xizmat ko'rsatish korxonalarida noto'g'ri tushuniladi va hisobga olinmaydi.

Tan narxni kamaytiradigan omillarning baholanishi. BHXS 2, 28–33-bandlarda qayd etilishicha, tovar-moddiy zaxiralar tan narxini kamaytirishga sabab bo'luvchi holatlar (masalan, eskirgan mahsulotlar, ortiqcha saqlash xarajatlari) aniqlanganda, ushbu zaxiralar sof sotish qiymatiga qayta baholanishi kerak. Ko'plab korxonalarda bu talab bajarilmaydi, shuning uchun mahsulotlar qiymati sun'iy ravishda yuqori ko'rsatiladi va bu hisobdorlikni buzadi.

Xulosa va takliflar.

Tovar-moddiy zaxiralarning kirimini to'g'ri hisobga olish – bu korxonaning moliyaviy salomatligi, real foydasi va ishonchli hisobotlari kafolatidir. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida bu jarayonning BHXS 2 talablariga muvofiq tashkil etilishi zarur.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Har bir korxona hisob siyosatida tovar-moddiy zaxiralar kirimini baholash usulini aniq belgilab qo'yishi va xodimlarni muntazam o'qitib borishi zarur.

Elektron hisob dasturlarida kirim tartibini avtomatlashtirish, tan narxga barcha tegishli xarajatlar kiritilishini nazorat qilish uchun ichki audit tizimi joriy etilishi kerak.



References:

1. BHXS 2 – “Tovar-moddiy zahiralar”, МХХС Фонди
2. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun
3. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari to‘plami (IFRS)
4. Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi, 2023
5. Abdurashidov A. “Buxgalteriya va audit asoslari”, TDIU
6. Hamidov B. “Korxonalarda ichki nazorat tizimi”, Ilmiy maqola, 2022
7. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi